



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMINING QARORI

Samarqand sh., Ko'ksaroy maydoni, 1-uy.

2024-yil 25-sentabr

274-7-0-Q/24

Samarqand viloyati hokimligi

Issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan Samarqand shahri va Nurobod tumanidagi aholiga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdorini tasdiqlash to'g'risida

“2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sentabrdagi “Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” 475-son qaroriga asosan issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligini yanada oshirish hamda korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 1-iyuldaggi VI-100-58-7-0-K/24-sonli qarori bilan issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan Samarqand shahri va Nurobod tumanidagi aholiga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdori ma'qullanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Samarqand shahri va Nurobod tumanida issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan aholiga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (B.Negmatov), “Issiqlik manbai” DUK (N.Gazibekov), Samarqand shahar hokimligi (F.Umarov), Nurobod tumani hokimligi (S.Berdiqulov):

tuziladigan shartnomalarga muvofiq xizmatlar ko'rsatilishini, shuningdek, iste'molchilarga issiqlik energiyasi va issiqlik suv uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash;

issiqlik ta'minoti tizimi obyektlarining holati, foydalanimishi va ularni ta'mirlanishi ustidan tizimli nazorat o'rnatilishini;

ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha to'lovlarining o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha ishlarni samarali tashkil etilishini ta'minlasinlar.

4. Viloyat hokimligi axborot xizmati – matbuot kotibi (M.Mirzayev), "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" davlat unitar korxonasi (N.Norbekov) ushbu qarorni Lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasida rasman e'lon qilinishini va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

5. Viloyat televideniesi (M.Ixtiyorov), "Zarafshon" va "Самарканский вестник" gazetalari birlashgan tahririysi (F.Toshev)ga ushbu qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinnbosari A.Shukurov zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Viloyat hokimi



E.Turdimov

Samarqand viloyat hokimining
2024-yil 25-sentabrdagi
274-7-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Samarqand shahri va Nurobod tumanida issiqlik bilan ta'minlovchi
korxonalar tomonidan aholiga ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari
uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)**

MIQDORI

| Xizmatlar turi | O'Ichov birligi | Narx (tarif) (so'm) |
|---|-----------------------|------------------------|
| Samarqand shahri | | |
| Aholi uchun markaziy isitish (1 kv.metr uchun 1 oyga, QQS bilan) | kv.metr | 2380 |
| Aholi uchun issiq suv ta'minoti (1 ta odam uchun 1 oyga) | Bir oyda fuqaro uchun | 28915 |
| Aholi uchun issiq suv ta'minoti hisoblagichi bo'yicha (1 metr.kub uchun) | metr.kub | 7197 |
| Aholi uchun tarif (1 Gkal uchun) | Gkal | 130834 |
| Nurobod tumani | | |
| Aholi uchun markaziy isitish (1 kv.metr uchun 1 oyga, QQS bilan) | kv.metr | 5664 |
| Aholi uchun issiq suv ta'minoti (1 ta odam uchun 1 oyga) | Bir oyda fuqaro uchun | 78615 |
| Aholi uchun issiq suv ta'minoti hisoblagichi bo'yicha (1 metr.kub uchun) | metr.kub | 20208 |
| Aholi uchun tarif (1 Gkal uchun) | Gkal | 367338 |